

O'zbekiston Respublikasi
madaniyat vazirining
2022-yil "31" sentabr dagi
217 -son buyrug'iga
4-ilova

**“Yosh maqom ijrochilari” respublika ko‘rik-tanlovini tashkil etish
va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom “Yosh maqom ijrochilari” respublika ko‘rik-tanlovi(keying o‘rinlarda Tanlov deb yuritiladi)ni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlovning ijro dasturi va Tanlovda ijro etiladigan asarlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan Tanlov boshlanishidan kamida ikki oy oldin tasdiqlanadi.

3. Tasdiqlangan ijro dasturi va Tanlovda ijro etiladigan asarlar ro‘yxati: O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar madaniyat boshqarmalari hamda Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmasiga besh kun muddatda;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar madaniyat boshqarmalari hamda Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmasi tomonidan ijro dasturi va Tanlovda ijro etiladigan asarlar ro‘yxati kelib tushganidan keyin uch kun muddatda ixtisoslashtirilgan san‘at va madaniyat maktablari, maktab-internatlar, madaniyat va san‘at yo‘nalishidagi akademik litseylar, oliy ta‘lim muassasalari, bolalar musiqa va san‘at maktablari, badiiy va ijodiy jamoalarga yetkaziladi.

4. Tanlov dasturi tasdiqlanganidan so‘ng unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

5. Tanlov 2022-yil iyul-sentabr oylarida o‘tkaziladi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha mas‘ul hisoblanadi.

2-bob. Tanlovning maqsad va vazifalari

7. Quyidagilar Tanlovning maqsad va vazifalari hisoblanadi:

o‘zbek musiqa ijrochiligi madaniyatini yanada yuksak darajaga ko‘tarish, milliy maqom san‘atini dunyo sahnalariga olib chiqish, iqtidorli yoshlarni kashf etish, rag‘batlantirish va ularning ijodini targ‘ib etish;

yosh maqom ijrochilarining iste'dodi va ijodiy qobiliyatini namoyon etish, ularning ijrochilik ko'nikmalarini yanada rivojlantirish;
yoshlar orasida maqom san'atiga bo'lgan qiziqishni oshirish.

3-bob. Tanlovda ishtirok etish shartlari

8. Tanlovda 17 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan xalq cholg'ulari ijrochilari va maqom xonandalari ishtirok etishlari mumkin.

9. Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etish lozim:

Tanlovda ishtirok etish uchun ma'lumotnoma (rezyume);

pasport yoki ID-karta nusxasi;

ma'lumot to'g'risidagi hujjat (diplom) nusxasi (mavjud bo'lsa);

o'qish yoki ish joyidan berilgan ijodiy tavsifnoma va ma'lumotnoma;

4 x 6 sm o'lchamdagi 2 dona fotosurat;

Ijro dasturi.

10. Belgilangan muddatdan kech taqdim etiladigan hujjatlar qabul qilinmaydi.

4-bob. Tanlovni o'tkazish shartlari

11. Ishtirokchilarning Tanlov davomidagi tegishli yo'nalishlar bo'yicha ijro etish navbati belgilangan tartibda qur'a tashlash orqali aniqlanadi va ushbu tartib Tanlov yakuniga qadar saqlab qolinadi.

12. Asarlar yoddan ijro etiladi.

13. Tanlov quyidagi yo'nalishlarda o'tkaziladi:

maqom xonandaligi — erkak ovoz;

maqom xonandaligi — ayol ovoz;

maqom ansambli;

maqom cholg'u ijrochiligi – nay, qo'shnay, surnay ijrochiligi;

maqom cholg'u ijrochiligi – chang, qonun ijrochiligi;

maqom cholg'u ijrochiligi – qashqar rubobi, ud ijrochiligi;

maqom cholg'u ijrochiligi – dutor, tanbur, sato ijrochiligi;

maqom cholg'u ijrochiligi – g'ijjak ijrochiligi;

maqom cholg'u ijrochiligi – doira, nog'ora ijrochiligi;

5-bob. Tanlov ishtirokchilarini baholash va g'oliblarni taqdirlash

14. Tanlovni o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining buyrug'i bilan maqom san'atining taniqli ijodkorlari, maqomdon olimlar, madaniyat va san'at sohasining yetuk vakillaridan 5 nafardan iborat hakamlar hay'ati tasdiqlanadi.

15. Tanlov uch bosqichdan iborat bo‘ladi.

Tanlovning barcha bosqichlarida ishtirokchilarning ijro mahorati hakamlar hay‘atining har bir a‘zosi tomonidan alohida tarzda 10 ballik tizim bo‘yicha baholanadi.

16. Tanlovning 1-bosqichida umumiy ball natijalariga ko‘ra eng yuqori ball to‘plagan ishtirokchilarning 40 foizi 2-bosqichga, shuningdek, Tanlovning 2-bosqichida ham umumiy ball natijalariga ko‘ra eng yuqori ball to‘plagan ishtirokchilarning 40 foizi hakamlar hay‘ati qaroriga asosan Tanlovning yakuniy bosqichiga o‘tkaziladi.

17. Hakamlar hay‘ati tomonidan ishtirokchilarga qo‘yilgan ballar teng bo‘lib qolganda, hakamlar hay‘ati raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

18. Hakamlar hay‘ati qarori qat‘iy hisoblanadi hamda muhokama etilmaydi.

19. Tanlovning yakuniy natijalari hakamlar hay‘atining qarori bilan rasmiylashtiriladi.

20. Tanlov g‘oliblari hakamlar hay‘ati qaroriga asosan aniqlanadi hamda quyidagi tartibda taqdirlanadi:

maqom xonandaligi — erkak ovoz yo‘nalishi bo‘yicha:

birinchi o‘rin – birinchi darajali diplom, zamonaviy noutbuk;

ikkinchi o‘rin – ikkinchi darajali diplom, zamonaviy televizor;

uchinchi o‘rin – uchinchi darajali diplom, zamonaviy planshet.

maqom xonandaligi — ayol ovoz yo‘nalishi bo‘yicha:

birinchi o‘rin – birinchi darajali diplom, zamonaviy noutbuk;

ikkinchi o‘rin – ikkinchi darajali diplom, zamonaviy televizor;

uchinchi o‘rin – uchinchi darajali diplom, zamonaviy planshet.

maqom ansambli yo‘nalishi bo‘yicha:

birinchi o‘rin – birinchi darajali diplom, zamonaviy noutbuk;

ikkinchi o‘rin – ikkinchi darajali diplom, zamonaviy televizor;

uchinchi o‘rin – uchinchi darajali diplom, zamonaviy planshet.

maqom cholg‘u ijrochiligi – nay, qo‘shnay, surnay ijrochiligi yo‘nalishi bo‘yicha:

birinchi o‘rin – birinchi darajali diplom, zamonaviy noutbuk;

ikkinchi o‘rin – ikkinchi darajali diplom, zamonaviy televizor;

uchinchi o‘rin – uchinchi darajali diplom, zamonaviy planshet.

maqom cholg‘u ijrochiligi – chang, qonun ijrochiligi yo‘nalishi bo‘yicha:

birinchi o‘rin – birinchi darajali diplom, zamonaviy noutbuk;

ikkinchi o‘rin – ikkinchi darajali diplom, zamonaviy televizor;

uchinchi o‘rin – uchinchi darajali diplom, zamonaviy planshet.

maqom cholg‘u ijrochiligi – qashqar rubobi, ud ijrochiligi yo‘nalishi bo‘yicha:

birinchi o‘rin – birinchi darajali diplom, zamonaviy noutbuk;
ikkinchi o‘rin – ikkinchi darajali diplom, zamonaviy televizor;
uchinchi o‘rin – uchinchi darajali diplom, zamonaviy planshet.

maqom cholg‘u ijrochiligi – dutor, tanbur, sato ijrochiligi yo‘nalishi bo‘yicha:

birinchi o‘rin – birinchi darajali diplom zamonaviy noutbuk;
ikkinchi o‘rin – ikkinchi darajali diplom, zamonaviy televizor;
uchinchi o‘rin – uchinchi darajali diplom, zamonaviy planshet.

maqom cholg‘u ijrochiligi – g‘ijjak ijrochiligi yo‘nalishi bo‘yicha:

birinchi o‘rin – birinchi darajali diplom, zamonaviy noutbuk;
ikkinchi o‘rin – ikkinchi darajali diplom, zamonaviy televizor;
uchinchi o‘rin – uchinchi darajali diplom, zamonaviy planshet.

maqom cholg‘u ijrochiligi – doira, nog‘ora ijrochiligi yo‘nalishi bo‘yicha:

birinchi o‘rin – birinchi darajali diplom, zamonaviy noutbuk;
ikkinchi o‘rin – ikkinchi darajali diplom, zamonaviy televizor;
uchinchi o‘rin – uchinchi darajali diplom, zamonaviy planshet.

6-bob. Yakunlovchi qoida

21. Tanlovni o‘tkazish jarayonlari bo‘yicha kelib chiqadigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.